



## ARBITRLAR VA ARBITRAJGA OID TARTIB-TAOMIL (XALQARO TIJORAT ARBITRAJI)

*Baxriddinov Eldorjon Sirojiddin o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola arbitrlar va arbitrajga oid tartib-taomil xalqaro tijorat arbitraji munosabatlarida keng qo'llaniladigan nizolarni muqobil hal etish usuli hisoblangan arbitrajning huquqiy asosini tashkil etuvchi arbitraj bitimlarining mohiyati va tarkibiy elementlarini muhokama qiladi. Arbitraj bitimi bilan bog'liq asosiy masalalarni ochib berishda asosiy e'tibor huquqi va amaiyotiga yo 'naltiriladi. Shuningdek, arbitraj tartib taomili hamda uni tuzish jarayonida e'tibor qaratish lozim bo 'lgan masalalar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro tijorat arbitraji, arbitraj huquqi, arbitraj bitimi, arbitraj kelishuvi, tartib taomili.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi rivojlanib kelayotgan bir davrda har bir sohaning keng miqyosda o'sayotganini, undagi muammolar ko`zga tashlanib, un hal qilish yo'llaritopilayotganini ko`rib, guvohi bo`lishimiz mumkin. Shu jumladan, xalqaro arbitraj sohasida ham oldinga siljishlari, tijorat sohasidagi shartnomaga tuzuvchi tadbirdorlar, investorlarningham xalqaro tijorat arbitrajiga bo`lgan talabi oshgani va shu bilan bir qatorda, huquqiy ongiyuqori darajaga ko`tarilganidan xabardormiz. Mazkur maqola davomida biz dastlab, xalqarotijorat bo`yicha umumiyligi tushunchalarni, xalqaro tijorat arbitraji sud jarayonlari va so`nggitaror chiqishi, ijrosi va uning davlat siyosatiga bog`liqligi borasida mulohazalarimizni keltirib o`tamiz. Xorijiy arbitraj qarori yakuniy va ijro etilishi odatda qabul qilinadi. Biroq, amalda buhar doim ham shunday emas. Davlat siyosatidan istisno xalqaro tijorat arbitrajida qarorlarni ijro etishning eng asosiy cheklovlaridan biridir. Davlat siyosati istisnosiga keng yondashuvxorijiy arbitraj qarorlarining yakuniyligi va ijro etilishiga putur yetkazdi. Ushbu maqolada immuallif bir qator potentsial qarama-qarshi omillarni hisobga olgan holda davlat siyosatidan istisnoga nisbatan cheklovchi yondashuvning yagona modelini ilgari surishga harakat qiladi. Bularga samaradorlik, turli qadriyatlar va huquqiy madaniyatlar oldida betaraflik kiradi.

Arbitr – taraflar tomonidan nizoni arbitrajda hal qilish uchun kelishilgan tartibda tayinlangan jismoniy shaxs;

arbitraj – doimiy arbitraj muassasasi yoki muayyan nizoni hal etish uchun tashkil etiladigan arbitraj sudi tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, nizoni hal etish tartib-taomili.

arbitraj muassasasi – xalqaro tijorat arbitrajini boshqaradigan tashkilot;  
arbitraj sudi – yakka tartibdagi arbitr yoki arbitrlar hay'ati.



Taraflar o‘z xohishiga ko‘ra arbitrlar sonini belgilashi mumkin. Bunday kelishuv bo‘limganda uch nafar arbitr tayinlanadi. Xalqaro tijorat arbitrajiga taraflarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga ega bo‘lgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkin.

Arbitraj sudi tomonidan belgilangan ta'minlash chorasi majburiy kuchga ega deb tan olinadi. Arbitraj ish yuzasidan yozma hal qiluv qarori chiqaradi.

Arbitrajning hal qiluv qarori, u qaysi mamlakatda qabul qilinganidan qat’i nazar, majburiy deb tan olinadi va sudga yozma ariza berilgan taqdirda ijro etiladi. Bunda arbitraj hal qiluv qarorining tegishli tartibda tasdiqlangan asl nusxasi yoki ko‘chirmasini ijroga taqdim etish lozim bo‘ladi.

Arbitraj xususiy sudlov tizimidir. Bunda nizolashuvchi taraflar o‘z nizolarini har qanday sud tizimidan tashqarida hal qilishga qaror qilishadi. Ko‘p hollarda arbitraj jarayoni milliy sudda ijro etish mumkin bo‘lgan arbitraj qarorini chiqarishga asos bo‘ladigan yakuniy va majburiy qaror chiqarishni o‘z ichiga oladi. Qaror qabul qiluvchilar.

Hakamlik muhokamasi bosqichi deganda an'anaviy tarzda umumiyl protsessual maqsadga erishishga qaratilgan protsessual harakatlar majmui tushuniladi.

Birinchi, apellyatsiya va cassatsiya instansiyalari sndlari, nazorat tartibida ish yuritish, hakamlik sudining yangi yoki yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ish yuritish, sud hujjatlarini ijro etish - bularning barchasi arbitraj jarayonining bosqichlari, ularning har biri o‘zining maxsus funktsiyalarini bajaradi.

Sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha hakamlik jarayonining bosqichlari majburiy bo‘limganligi sababli odatda ixtiyoriy deb ataladi. Shu bilan birga, sud hujjatlarini ijro etish bosqichi ko‘pincha munozarali hisoblanadi. Ish bo‘yicha ish yuritishni boshlash bosqichida hakamlik sudi da‘vo arizasining Rossiya Federatsiyasi Hakamlik protsessual kodeksining umumiyl talablariga muvofiqligini, shuningdek, belgilangan hollarda, maxsus talablarga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu talablarni buzgan holda berilgan da‘vo arizasi tuzatib bo‘lmaydigan kamchiliklarga ega bo‘lgan da‘vo arizasiga nisbatan harakatsiz qoldiriladi4 (masalan, konstitutsiyaviy yoki jinoiy ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilishi kerak yoki sndlarda ko‘rib chiqilishi shart emas), , hakamlik sudi qabul qilishdan bosh tortish huquqiga ega.

Arbitraj xalqaro tijorat va savdo-sotiq munosabatlarida kelib chiqadigan nizolarni hal etishning eng keng tarqalgan vositasidir. Arbitraj bitimi esa zamona viy xalqaro tijorat arbitrajining tamal toshi hisoblanadi va uning huquqiy asosini tashkil etadi. Chunki nizolashayotgan taraflar o‘rtasida qonun talablariga javob beradigan arbitraj kelishuvining mavjud emasligi arbitraj sudi tomonidan qabul qilingan qarorni ijro etishni rad etishga sabab bo‘ladi. Arbitraj bitimining haqiqiyligi va samaradorligi,

asosan, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar hamda tegishli davlatning arbitraj to'g'risidagi milliy qonunchiligi bilan uzviy bog'liq.

Arbitraj bitimi xalqaro arbitraj protsessining uzviy qismi hisoblanadi. Arbitraj kelishuvining ikki asosiy turi mavjud: arbitraj bandi va arbitraj shartnomasi (bitimi). 1996-yildagi "Arbitraj to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida "arbitraj bitimi hozirgi yoki keljakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni, shartnomaviy bo'lishidan qat'iy nazar arbitrajga topshirish to'g'risidagi kelishuv" deb belgilangan. O'zbek huquqshunoslarining fikriga ko'ra, arbitraj bitimi - "tomonlarning, ular o'rtasidagi aniq munosabatlar jarayonida sodir bo'lgan yoki sodir bo'lshi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik oqibatida paydo bo'ladigan nizolarni arbitraj muhokamasiga topshirish to'g'risidagi bitimdir". Ba'zi manbalarga ko'ra, arbitraj "faqat taraflarning xohish-irodasi tufayligina mavjuddir". Garchi taraflarning xohish-irodasi va roziligi katta amaiyatga ega bo'lsa ham, xalqaro arbitraj bitimining yuksak samaradorligi uning xalqaro va milliy huquq normalariga muvofiq haqiqiyligi va milliy sudlar tomonidan ijro etilishiga bog'liq. Chunki arbitraj tribunalining yakuniy qaroridan norozi bo'lgan taraf qarorni bekor qilish yo'llarini izlaydi va arbitraj bitimining haqiqiyligini inkor etish bu borada eng keng tarqalgan yo'llardan biridir.

Ingliz huquqiga muvofiq, arbitraj bitimlari yozma shaklda tuzilishi shart. Buning asosiy sababi shuki, Nyu-York Konvensiyasining 2-moddasi arbitraj bitimlarining yozma shaklda tuzilishini belgilab qo'yan. Biroq, ushbu konvensiyani uning maqsadi va predmetidan kelib chiqib sharhlasak, Nyu-York Konvensiyasi arbitraj kelishuvining shakliga nisbatan qat'iy talablar o'rnatmaydi, balki ahslashuvchi davlatlar zimmasi yozma shaklda tuzilgan arbitraj bitimlarini tan olish va ijro etish majburiyatini yuklaydi. Shunday bo'lsa ham, nizo kelib chiqqanda, taraflardan biri o'z fikridan qaytib qolishi va arbitraj bitimini rad etishi mumkin. Shu sababdan, deyarli barcha yurisdiksiyalarda arbitraj kelishuvlariga nisbatan yozma shakl talabi belgilangan. Lekin, yozma shakldagi arbitraj bitimlarini imzolash talab etilmaydi. Arbitraj bitimining taraflar tomonidan qabul qilingan shartnomada yoki yozma xabarnomalarda aks ettirilgan bo'lsa, u yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi .Shuningdek arbitraj kelishuvida yozma ravishda aks ettirilgan tartib va shartlarga og'zaki tarzda rozilik berish arbitraj bitimi yozma shaklda tuzilgan deb hisoblashga asos bo'ladi.

Birinchi navbatda, taraflarning barcha nizolarni arbitraj orqali hal etish niyatini ko'rsatuvchi yozma shaklda tuzilgan yoki boshqacha tarzda qayd etlgan arbitraj bitimi mavjud bo'lishi kerak. Aksariyat arbitraj muassasalarining tavsiyaviy va namunaviy arbitraj bitimlari mavjud. Bunday muassasalarga London Xalqaro Arbitraj Sudi (LCIA), Xalqaro Savdo Palatasi (ICC), Toshkent Xalqaro Arbitraj Markazi (TIAC) va boshqalarni kiritish mumkin. Taraflarning xohish-istiklarini ifoda etuvchi arbitraj bitimida quyidagi masalalarni aniq-ravshan belgilab qo'yish tavsiya etiladi:

(a) Arbitraj amalga oshiriladigan joy (seat of arbitration) - bu arbitraj protsessining yuridik manzili va arbitraj joyi sifatida tanlangan joyning protsessual huquqi arbitraj muhokamasiga nisbatan qo'llaniladi. Agar taraflar arbitraj o'tkaziladigan joy bo'yicha kelishuvga erisha olmasalar, u arbitraj sudi tomonidan belgilanishi mumkin [3, s.3]. Arbitraj joyini tanlashda, avvalo, tanlanayotgan davlat Nyu-York Konvensiyasini ratifikatsiya qilganligini tekshirish lozim. Shuningdek, arbitraj o'tkaziladigan joyni taraflar joylashgan yerga uzoq-yaqinligi, zamon talablariga javob beradigan sud eshitivi binolarining mavjudligi, davlat sudlarining arbitrajga bo'lgan munosabati kabi amaliy masalalar e'tiborga olinishi kerak.

(b) Arbitrlar soni - taraflar tribunal necha nafar arbitrdan tarkib topishini belgilash huquqiga ega. Agar taraflar tribunal ikki nafar arbitrdan tarkib topishini belgilagan bo'lsa, ular ushbu ikki arbitr tribunal raisini tayinlashini ko'zda tutgan bo'aladilar. Agar arbitrlar soni bo'yicha kelishuv mavjud bo'lmasa, arbitraj tribunali bir nafar arbitrdan iborat tarkibda tuziladi [3, s.15]. Xalqaro tijorat arbitrajida nizo toq sondagi arbitrlar orqali hal etilishi maqsadga muvofiq. Aksariyat hollarda bir yoki uchta arbitr nizoni hal etish uchun kifoya.

(c) Qo'llaniladigan huquq - muayyan bir yurisdiksiyaning moddiy huquqi hisoblanib, arbitr ushbu huquq normalarini qo'llagan holda nizoni hal etadi. Taraflar shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquq normalari bilan bir qatorda arbitraj kelishuviga nisbatan qo'llaniladigan huquqni ham belgilashlari tavsiya etiladi. Xalqaro savdo-sotiqlar bilan shug'ullanuvchi taraflar ma'lum bir davlatning ichki qonunchiligini tanlashga majbur emaslar. Ular "Tovarlar xalqaro oldi-stodi shartnomalari to'g'risida"gi konvensiyani yoki UNIDROIT xalqaro tijorat shartnomalari tamoyillarini ham shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquq sifatida tanlashlari mumkin.

Taraflarning arbitraj kelishuvi ko'pincha ular o'rtasida tuzilgan tijorat shartnomasiga kiritilgan bandlarida mavjud bo'ladi. Umuman olganda, arbitraj kelishuvi har qanday nizo kelib chiqishidan oldin tuziladi va nizo kelib chiqqan taqdirda uni hal qilish usuli sifatida qaraladi. Ammo taraflar taraflarning o'zaro shartnomasida nizolarni hal etish uchun arbitraj kelishuvi mavjud bo'lmasa va kelishmovchilik yuzaga kelsa, ikkala taraf ham rozi bo'lgan taqdirda nizo kelib chiqqan zahoti arbitraj kelishuvini tuzishlari mumkin. Bunday kelishuv odatda taqdim etish kelishuvi (submission agreement) deb nomlanadi. Biroq bunday arbitraj kelishuvlari shartnomaga kiritilgan arbitr izohlariga qaraganda kamroq tarqalgan, chunki nizo kelib chiqqandan so'ng taraflar aksariyat hollarda biron-bir masalada kelisha olmasligi mumkin. Shu sababli birinchidan, ya'ni taraflar munosabatlarga kirishishida, hali o'zaro munosabatda bo'lgan paytda taraflar arbitraj tartibiga kelishib olishlari yaxshiroq sanaladi.

Arbitraj kelishuvi taraflar o'rtasidagi shartnomaga kiritilgan bo'lsa ham, aksariyat qonunlar va qoidalarga ko'ra u alohida shartnoma deb hisoblanadi. Shu

sababli asosiy kelishuv shartnomasi, ya’ni arbitraj kelishuvi kiritilgan shartnoma haqiqiy emas deb topilganda ham, arbitraj kelishuvi o‘z kuchini saqlab qolishi mumkin. Ko‘pgina yurisdiksiyalarda ushbu alohidalik doktrinasi (arbitraj kelishuvi avtonomiyasi) arbitrlarga shartnoma bekor qilingan yoki firibgarlik yo‘li bilan tuzilganligi sababli, haqiqiy emas deb topilgan hollarda bir tomonning da’vosi bilan ham bu munozarani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish huquqini beradi. Bunday da’volar arbitrlarni sud amaliyotidan mahrum qilmaydi, chunki ular asosan arbitraj kelishuviga emas, balki asosiy shartnomaga («konteyner shartnomasi» deb ham ataladi) tegishlidir. Shunday qilib, arbitraj kelishuvi alohida va mustaqil kelishuv hisoblanadi, unga asosiy shartnomaning haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi da’volar ta’sir qilmaydi va hanuzgacha arbitrlarga nizoni hal qilish vakolatini beradi. Alohalik doktrinasi ko‘plab arbitraj qonunlari va qoidalarida o‘z aksini topgan.

Taraflar arbitraj kelishuviga erishganlarida taqdim etilgan muhim huquqlar bekor qilinishi bois arbitraj kelishuvining haqiqiyligi juda muhimdir. Arbitraj – bu rozilikning ifodasidir va bu rozilik oshkora, ochiq-oydin va vakolatlar doirasida to‘liq ravishda bildirilgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun taraflar haqiqatan ham bitim shartlarini qabul qilganliklarini aniqlash uchun ko‘plab milliy qonunlar, shuningdek Nyu-York konvensiya asosidagi arbitraj kelishuvini yozma ravishda tuzilishini talab qiladi. Agar arbitraj kelishuvining mazmuni arbitraj kelishuvi yoki shartnoma og‘zaki shaklda tuzilganligidan yoki tuzilmaganligidan qat’i nazar, taraflarning harakati asosida yoxud boshqa vositalar yordamida biror-bir shaklda qayd etilgan bo‘lsa, ushbu kelishuv yozma shaklda tuzilgan deb hisoblanadi.

Arbitraj kelishuvini yozma shaklda tuzish to‘g‘risidagi talab elektron xabar orqali, agar undagi axborot kelgusida undan foydalanish uchun ochiq bo‘lsa, qanoatlantiriladi.

Taraflar nizolarni arbitraj orqali hal etishga qaror qilishganda amalga oshirishlari kerak bo‘lgan tanlovlardan biri bu ular o‘zlarining arbitraj jarayonini arbitraj instituti tomonidan boshqarilishini yoki arbitraj ad hoc bo‘lishini xohlash-xohlamasliklaridir. Har bir tanlov uchun afzalliklar va kamchiliklar mavjud. Institutsional arbitrajda institutning muhim ma’muriy funksiyalarni bajarishi afzallik deb hisoblanadi. Institutsional qoidalar arbitrlarning o‘z vaqtida tayinlanishini, arbitraj oqilona tarzda harakat qilishini hamda taraflar haq va xarajatlarni oldindan to‘lovni amalga oshirishlarini ta’minlaydi. Arbitrlarning nuqtayi nazariga ko‘ra, to‘lovlar masalasida taraflar bilan kelishishning shart emasligi afzallik hisoblanadi. Bundan tashqari, institutning arbitraj qoidalari vaqt sinovidan o‘tgan va odatda yuzaga keladigan aksariyat vaziyatlarni hal etishda juda samaralidir. Yana bir afzalligi shundaki, mashhur institut nazorati ostida qabul qilingan qaror xalqaro hamjamiyat va sudlarda ko‘proq ishonchga ega bo‘lishi mumkin. Bu yutqazgan tarafni qarorga nisbatan e’tiroz

bildirmaslikka va imkoni boricha, qaror qilingan summani ixtiyoriy ravishda to‘lashiga sabab bo‘lishi mumkin.

Arbitraj jarayonini tartibga soluvchi lex arbitri deyarli hamma vaqt arbitraj joylashgan joy qonuni bo‘ladi. Ba’zan uni protsessual huquq yoki kurial (curial) huquq deb ham atashadi. Garchi lex arbitri protsessual huquq sanalsa ham unda ayrim moddiy huquqning elementlari bor. Protsessual va moddiy huquqlarni ajratuvchi chiziq hamma vaqt ham aniq emas va hamma davlatlarda bir yondashuv mavjud emas. Tushunish kerak bo‘lgan eng muhim narsalar bular lex arbitri tartibga soladigan masalalarning turi hamda ushbu huquqning taraflar tanlagan huquq va asosiy shartnomani tartibga soluvchi moddiy huquq bilan o‘zaro nisbati hisoblanadi.

Arbitraj taraflarga katta erkinlik berish bilan birga, nizolarni hal etish jarayoni ustidan nazorat qilish imkoniyatini ham taqdim etadi. Bu, ayniqsa, xalqaro tijorat arbitrajida muhim omil sanaladi. Chunki bir taraf ikkinchi tomonning sud tizimi talablarini bilmasligi, pirovardida boshqa taraf ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Xalqaro arbitraj betaraf forumni taklif etadi va unda arbitr hamda taraflar nizoni hal etishda faqat adolat bilan yondashadi. Bundan tashqari, nizolarni hal qilish jarayonini taraflar manfaatlariga muvofiqlashtira olishi mumkinligi, uning moslashuvchanligi va nizo predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo‘lgan har qanday mutaxassisni arbitr sifatida tanlash imkoniyati mavjudligi arbitraj jozibadorligining oshishiga xizmat qiladi. Ish yurituvining sir saqlanishi esa nizoli taraflarning nomi, tijorat siri va obro‘-e’tiboriga ziyon yetkazmaydi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. "Chet el Arbitraj Qarorlarini Tan olish va Ijro etish" bo'yicha Nyu-York Konvensiyasi (1958).
2. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-674, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-yil, 03/21/674/0123-son.
3. English Arbitration Act (1996).
4. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985; with 2006 amendments).
5. The Arbitration Rules of London Court of International Arbitration (2020).
6. Born, G.B. (2021) International Commercial Arbitration. Vol. I. 3rd edn. Alphen aan den Rijin, The Netherlands: Wolters Kluwer.
7. Blackaby N., Partasides C. (2015) Redfern and Hunter on International Arbitration. Student Version. 6th edn. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press.
8. Mozes M.L. (2020) Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Uchinchi nashr. Toshkent: Lesson Press (ingliz tilidan o'zbek tiliga TDYU xalqaro xususiy huquq kafedrasini o'qituvchilari tomonidan tarjima qilingan).
9. Rustambekov I. (2019) Xalqaro xususiy huquq. Darslik. Toshkent: TDYU nashriyoti.